

NUTQIY ETIKET BIRLIKLARI (FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

I. Dehqonov

*FarDU chet tillari fakulteti**Nemis va fransuz tillari kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada fransuz va o'zbek xalqlarining nutqiy etikek birliklarining o'ziga xos bo'lgan muhim jihatlari hamda bu nutqiy etiket birliklarining turli hayotiy vaziyatlardagi holatlarda ishlatilishining o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *nutqiy etikek birliklari, muhim xususiyat, do'stona munosabat, hurmat ko'rsatish, e'tiborini jalb etish, mulozamat qilish, muloqot bezagi.*

Fransuz xalqlarida nutqiy etiket birliklari qo'llanilishining ayrim jihatlari o'zbek xalqiga ya'qin. Fransuz etiketi qoidalarida shunday ta'kidlanadi: "Agar siz muloyim bo'lsangiz, insonlar sizni har qanday holatda ham eshitadi va sizning fikringizga jiddiy jiddiy munosabatda bo'ladi".

Muloyimlik, halimlik xislati o'zbek xalqlariga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlardan biri bo'lib, bu jihat xalqimizning diniy qadriyatlarida ham aks etadi. Fikrimizning isboti sifatida Qurhoni Karimning Isro surasi, 53-oyatini keltirib o'tishni joiz deb bilamiz:

Bandalarimga ayting, ular eng go'zal bo'lgan narsani aytsinlar. Albatta, shayton oralarini buzib turadir. Albatta, shayton inson uchun ochiq-oydin dushmandir. 54 Muhammad (s.a.v.) tilni nojo'ya so'zlardan asrashga, imkon qadar sukut saqlashga buyurib: "Kim Alloh taologa va oxirat kuniga imon keltirgan bo'lsa, faqat yaxshi narsalarni gapirsin yoki jim tursin", deya marhamat qiladilar. Til va qalb o'rtasidagi uzviy bog'lanish haqida Rasululloh (s.a.v.) bunday deganlar: "Bandaning imoni to'g'ri bo'lmaydi, toki uning qalbi to'g'ri bo'lmaguncha, shuningdek, qalbi to'g'ri bo'lmaydi, toki uning tili to'g'ri bo'lmaguncha".

Fransuz xalqlarida nutqiy etiketning uchta oltin qoidasiga qat'iy amal qilish muhim hisoblanadi:

1) **Bosim o'tkazmang:** Insonlar o'zlarining shaxsiy muhitlariga egadirlar. Ular shaxsiy muhitlariga ihtilof qilinishini istamaydilar. Ular istamagan ishlarini boshqa odam tomondan bosim o'tkazilib, majburan qilishni xohlamaydilar. Insonlarning har biri o'zlariga nisbatan individual shaxs sifatida munosabat bildirishlarini kutadilar. Bu qoidada buyruq berish ham qoralanadi.

2) **Imkoniyat bering:** agar siz kimdandir biror ish bajarishlarini so'rasangiz yoki maslahat bersangiz ularga rozilik yoki rad etish imkoniyatini qoldiring.

3) **Erkinlik bering:** Bu insonlarni xursand qilishingiz shart - kerak degani emas. Lekin boshqa kishilarga ijobiy kayfiyat berish, o'zlarini erkin his qilishlarini ta'minlash muhim qoidadir. Kishilar o'z fikrlarining hurmat qilinishi va maxsus munosabat bildirilishini kutadilar.

Fransuz xalqining nutqiy etiket birliklari turlicha kontseptual nazariyalarni ilgari suradi. Masalan, fransuz nutqiy etiketiga "jamiyat qoidalariga amal qilgan holda boshqalarning hissiyotlarini hisobga olish" degan ta'rifni qo'llaydi.

Fransuz nutqiy etiketi – mehribonlik, do'stona munosabat, ziyraklik, kamtarlik, hurmat ko'rsatish kabi tushunchalarni o'zida mujassam etgan tushuncha ekanligini ta'kidlaydi.

Aynan shu jihatlari fransuz nutqiy etiketlarining o'zbek nutqiy etiketlari bilan o'xshashligini ta'minlovchi yana bir jihat ekanligi oydinlashadi. Fikrimizning isboti sifatida misollarga murojaat qilamiz. Fransuz nutqida uzr so'rash nutqiy etiket birliklari bir necha yo'l bilan ifodalanadi.

1. “Excusez- moi” – suhbatni boshlash, boshqa kishini e'tiborini jalb etish uchun aytiladi.

2. “Pardon” – suhbat jarayonida biror narsani eshitmay yoki anglamay qolganda, suhbatdoshidan uni yana takrorlashni so'rash va aniqlashtirish uchun qo'llanadi.

3. “(Je suis) désolé ” – biror xato ish qilganda yoki vaziyat yoqimsiz bo'lganda aytiladi. “(Je suis) désolé” ning ikkinchi ma'nosi hamdardlik va achinish bo'lib, o'zbek tilida “afsusdaman”, “hamdardman” ma'nosida tarjima qilinadi. (je suis désolé à propos de ton insuccès de l'examin- Imtihondan o'ta olmadingdan afsusdaman.)

Gap komponentlari yoki strukturasi o'zgartirish yohud leksik boyitish orqali ham nutqiy etiket birliklarini ifodalash mumkin. Oddiy nutq, Ehtiromli nutq : Il est difficile de s'accorder avec lui ... U bilan kelishish qiyin...

Il est un peu difficile de s'accorder avec lui...U bilan kelishish biroz qiyin.

Il faut que nous arrêtons de travailler ensemble....Birga ishlashni to'xtatishimiz kerak.

J'ai peur, on arrête de travailler ensemble. ... Qo'rqamanki, biz birga ishlashni to'xtatishimizga to'g'ri keladi.

Il y a une erreur ici.... Bu yerda xatolik bor.

il semble qu'il y a eu une erreur ici.... Bu yerda biroz xatolik bo'lganga o'xshayapti.

Fransiyaning nutqiy etiketi “o'ta takallufli” ko'rinsa-da haqiqiy hissiyotlardan uzoq, ko'proq soxta xarakterga ega” hisoblanadi. “Mulozamat qilish” aksariyat fransuzlarning muloqot bezagi va madaniyatining muhim qismidir. Fransuz nutqiy etiketida “Iltimos” (Je vous prie), “Rahmat” (Merci) va “Uzr” (Désolé) so'zlari muntazam qo'llanadi.

1. **Sayqallash etiketi:** “Fransuzlarda qalb so'zi yo'q, uning o'rnida “yumshatish, sayqal berish” (amoinissement) degan tushuncha mavjud.

Oxirgi 50 yil ichida muloqot madaniyati biroz o'zgargan bo'lsa-da, fransiyaliklar hamon “yumshatish uslubi”ga amal qiladilar. Fransuzlarda biror bir fojeali, halokatli vaziyatlar sodir bo'lganda ham bunga o'ta bosiqlik bilan munosabat bildirish holati kuzatiladi. Masalan, tabiiy ofat hisoblangan bo'ron sodir bo'lib, uy-joylar, bino va daraxtlarga jiddiy zarar yoki shikast yetganida ham ular bunga “il a fait un peu du vent ” – “ozgina shamol turdi”, deb izoh beradilar. Fransuzlar bilan muloqotga kirishganda juda ziyrak bo'lish talab etiladi. Fikrimizni J.Mayks 64 ta'biri bilan ifodalaydigan bo'lsak, fransuz kishisi “Aujourd'hui il pleut, je passerai un peu tard chez vous” – “Bugun yomg'ir yog'yapti, sal kechroq oldingizga boraman” deb aytsa, aslida “Il verse, aujourd'hui on ne peut pas absolument sortir de la maison, on peut sortir à moins qu'il ait un incendie!” – “Qattiq jala yog'yapti, men bugun uydan hech qayerga chiqmoqchi emasman, chiqishim mumkin, qachonki, uyga o't ketsa” degan ma'noga to'g'ri keladi.

“Votre français est un peu extraordinaire”- (“Sizning fransuz tilingiz bir oz noodatiy ekan”) jumlasida aslida “Sizning fransuz tilini bilish darajangiz juda past ekan” ma'nosida qo'llaniladi.

2. Ayblamaslik etiketi:

Bu etiketning mohiyatini quyidagi hayotiy vaziyatdagi holat bilan isohlash mumkin: Shoshi ketayotib kimnidir turtib yuborilsa, uzr so'ralganda, "ce n'est pas grave!" (Zarari yo'q), "désolé, c'est ma faute" (Uzr, bu mening aybim) deb javob beradilar. Bu takallufli javobning asl konnotativ ma'nosi quyidagicha:

"C'est votre faute, tous les deux la savons."

3. Dahlsizlik etiketi:

Bu etiket hamma evropa xalqlari qatori, fransuzlar tomonidan juda keng qo'llanadigan va mashhur hodisa hisoblanadi. Buning asosida "Ne pas s'ingérer (s'immiscer) dans les affaires d'autrui" - "Bir birining hayotida/tanloviga aralashmaslik" tushunchasi turadi. Fikrimizcha, birovning shaxsiy hayotiga dahl qilmaslik holati evropaliklarning ko'pchiligiga xos jihat bo'lib, o'zbek xalqida aksincha, birovning hayotiga befarq bo'lmaslik, loqaydlikka yo'l qo'ymaslik, aksincha, qo'ni qo'shni, mahalladoshlarning yaxshi va yomon kunlarida ularni qo'llab quvvatlash tamoyili kuchli. Fikrimizni kundalik hayotda uchraydigan bir vaziyat bilan dalillaymiz. Masalan, fransuz kishisining qo'shnisi yarim tunda nianinoni baland chalsa, u bunga hech e'tiroz bildirmaydi. Chunki bu qo'shnisining shaxsiy tanlovi, xohishidir.

Ammo o'zbek xalqida bunday holat qo'shnisining halovatini buzish deb qaraladi va o'zni kelganda tanbeh beriladi.

4. **Ichki hissiyotni yashirish etiketi.** Tub fransiyaliklar hech qachon asl hissiyotlarini oshkor etmaydilar. Masalan, "Ishlar qanday ketyapti?" degan savolga "Moi, je suis un peu dans un vinaigre" - "Vaziyat ozgina jiddiy", deb javob beriladi. Aslida, vaziyat o'ta qiyin va jiddiy ekanligi anglashiladi.

Aksariyat holatlarda insonlar ibodatxonalarga borib, o'z haqiqiy ahvolini rohiblarga so'zlashishi kuzatiladi. O'zbek xalqida esa bu savolga javob tinglovchi va so'zlovchining yaqinlik darajasidan kelib chiqib beriladi.

5. Nosamimiy (nazarda tutilmagan, kutilmagan) mehmondo'stlik etiketi.

Mehmondo'stlik an'anasi fransuzlar, italyanlar, ispanlar va ba'zi boshqa xalqlar madaniyatida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, u o'zbek xalqi madaniyatidan tubdan farq qiladi. 68. Xususan, "Venez chez nous pour dinner" - "Bisnikiga кечки овқатга келинг", degan taklif mazkur xalqlarda to'g'ri taklif (yani yuzaki, ko'ngil uchun emas) tarzida qabul qilinadi.

Nutqiy etiket birliklari bevosita xalqning madaniyati, mentaliteti, diniy qadriyatlari, insonlarning hissiyotlari bilan bog'liqligi bois, ularni lingvopragmatik jihatdan chuqur o'rganishni taqozo etadi. Lingvopragmatika birinchi bo'lib farb tilshunosligida namoyon bo'ladi.

Lingvopragmatika -pragmalingvistika va sotsiopragmatikaning o'rtasida joylashadi. Bu erda lingvopragmatika verbal muloqotning ikki asosiy komponentlari orasida kerakli halqa (zanjir) vazifasi bilan favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvopragmatika ham til tizimi, ham so'zlovchining kognitiv muhiti orasidagi moslashuvni belgilaydi. Bu umumiy pragmatikaning boshqa biror qismiga mos kelmaydi. Jumladan, pragmalingvistika, ko'proq grammatik xatolarni tekshirishga moyil bo'lib, noto'g'ri grammatikani qo'llab bildirilgan fikr anglashilmovchilikga olib kelishini misol qilish mumkin.

Ijtimoiy meyorlar va til o'rtasidagi bog'liqlik lingvopragmatika doirasida o'rganilib, qisman sotsiologiya va qisman lingvistikani o'z ichiga oladi. S. Levinson ta'kidlagandek, jamiyat vakillari bilan muvaffaqiyatli muloqotga kirishish va ijtimoiy qonun qoidalarga qioya qilish uchun sotsiopragmatika, yani ijtimoiy ong, xulq-atvor, mentalitet kabi qadriyatlarni nazariy jihatdangina bilishning o'zi etarli emas. Shu nilan birga pragmalingvistika, yani jamiyat tiliga bog'liq lingvistik qonun-qoidalarni bilish bilan cheklanish ham to'g'ri kelmaydi.

Bu holatda lisoniy va ijtimoiy meyorlarni bog'lab o'rganuvchi lingvopragmatika maqbul yo'nalish sanaladi. Lingvopragmatika ko'zda tutilgan maqsadga erishishda lisoniy vositalardan foydalanishni ta'minlovchi insonga xos qobiliyat qoidalaridir. Lingvopragmatika tilning faol nutqiy muloqotdagi qat'iy belgilangan shakli va belgilangan ijtimoiy-pragmatik tamoyillaridir..

ADABIYOTLAR:

1. Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. 35 36
2. Reboul A. & Moeschler J. Pragmatique du discours. De l'interprétation de l'énoncé à l'interprétation du discours, Paris, 1998.
3. Roulet E. La description de l'organisation du discours, Paris, Didier, 1999.
4. Sarfati (G E), Précis de pragmatique, Paris, Nathan, 2002.
5. Jacques Moeschler. Pragmatique du discours : passé, présent, future. Genève, 2014.
6. Dehqonov Islom Teshaeovich. (2022) Scientific-Theoretical Bases and Principles of Speech Etiquette Units in World Linguistics ("Etiquette De La Parole"). Volume 14. 39-42.
7. Dehqonov Islom Teshaeovich. (2022) FRANSUZ NUTQIY ETIKETIDA PRAGMATIKA VA INTONATSIYA. GOSPODARKA I INNOWACJE. Volume: 24.975-978.
8. NZO AHMADJONOV //ANALYSIS OF POETONYMS USED IN POETRY// International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 12, volume 104 published December 30, 2021 P. 509-512 page
9. Sh.M.Tairov "Hayot faoliyati xavfsizligi sohasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning nazariy jihatlari". " IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI" 5 IYUN / 2022 YIL / 19 - SON.
10. AN Zokirjon o'gli, AS Baxronjon o'gli //ANALYSIS OF POETONYMS IN PROSE WORKS// Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. Volume 10, Issue 2, February, 2022 ISSN: 2347-6915 SJIF Impact Factor: 7.472 P. 487-490
11. Rakhmatillo Shukurov Mirzatillayevich, Ahmadjonov Nurbek Zokirjonogli //Precedent names in the artistic text as allusive names// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 8 August 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. P. 46-52 page
12. Tairov Sherzod Mirzadjanivich //MOSLASHUV (ADAPTATSIYA) DAVRIDAGI ORGANIZM FUNKSIYALARINING DINAMIKASI VA UNING BOSQICHLARI// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 3 (100), часть 1. сентябрь, 2022 г
13. H Axmadjonov, A Ruzimatova //ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР НЕМИС ХАЛКИ МИЛЛИЙ МАДАНИЯТИНИНГ КЎЗГУСИДИР// O'ZBEKISTONDA FANLARARO

INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 10-SON. 20.08.2022. 104-109

14. N AKHMADJONOV // Phraseological units is a mirror of the German national culture// Scientific journal of the Fergana State University, 2018 №2. 83-85.